



## СУВ ТАЪМИНОТ КОРХОНАЛАРИДА БИЗНЕС ЖАРАЁНЛАРИ БЎЙИЧА ҲИСОБ ЮРИТИШ УЧУН АХБОРОТ ТИЗИМЛАРИ

**Саидакбаров Хусниддин Абдусаломович**

*Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси молия-иқтисод бўлими бошлиғи, п.ф.ф.д., (PhD).*

[saidakbarov1975@mail.ru](mailto:saidakbarov1975@mail.ru)

**ORCID: 0009-0008-3107-2310**

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol11\\_iss3/i5](https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss3/i5)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshqaruv hisobi nuqtai nazaridan boshqaruv tizimidagi yondashuvlar yangi yoʻnalishi sifatida funktsiyalarini bajarishi ustidan nazoratni va xodimlar tomonidan yuqori turuvchi rahbarning koʻrsatmalariga qatʻiy rioya qilishni nazarda tutadi, jarayonli yondashuvda bajariladigan ishni (funktsiyalarni) bajarilish texnologiyasini emas, balki yakuniy natijani nazorat qilish hisoblanadi. Operatsion, taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida korxonalar rahbariyati talablari asosida iqtisodiy faoliyat jarayonlarini oʻziga xos xususiyatlari koʻrib chiqilgan. Amaliy faoliyat va ilmiy yoʻnalish sohasi sifatida biznes-jarayonning istiqbollari aniqlangan.

**Kalit soʻzlar:** boshqaruv hisobi, biznes, tahlil, biznes-tahlil, koʻnikma, tadbirkorlik faoliyati, biznes-jarayon, boshqaruv qarorlarini asoslash, Biznes-tahlil xalqaro instituti nazorat.

### **Kirish**

Suvtaʻminoti sanoatida biznes-jarayonlari boʻyicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun buxgalteriya hisobi subʻekti faoliyatining jarayonlari boʻyicha tannarxni hisoblash va moliyaviy natijalarni shakllantirish imkonini beruvchi hisob tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Biznesning kengayish tendentsiyasi va unga kiritilgan elementlar oʻrtasidagi oʻzaro boʻliqlikning kuchayishi turli xil iqtisodiy faoliyat subʻektlari tomonidan iqtisodiy qarorlar qabul qilishda axborot sifatiga, shu jumladan buxgalteriya hisobiga qoʻyiladigan talablarni obʻektiv ravishda oshiradi. Buxgalteriya hisobi nafaqat axborot manbai, balki iqtisodiy siyosatni shakllantirish elementi, biznes quroli, mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlarni koʻrsatishni boshqarish mexanizmidir. Buxgalteriya hisobini biznes jarayonlari shaklida tashkil etilishi korxonalar boshqaruv tizimini yaratishning asosiy shartidir.

Bugungi kunda boshqaruv tizimida ikkita yondashuv mavjud: funktsional boshqaruv va jarayonli boshqaruv.

Funktsional yondashuvda korxonalar xodimlari oʻzini lavozim funktsiyalarini bajarishi ustidan nazoratni va xodimlar tomonidan yuqori turuvchi rahbarning koʻrsatmalariga qatʻiy rioya qilishni nazarda tutadi, jarayonli yondashuvda bajariladigan ishni (funktsiyalarni) bajarilish texnologiyasini emas, balki yakuniy natijani nazorat qilish hisoblanadi.

Ushbu biznes-jarayonlari hisobini asosini tashkil etgan jarayonli yondashuvni atroflicha koʻrib chiqamiz. Jarayonli yondashuv XX-asrning boshlarida vujudga kelgan.

Boshqaruvning ma'muriy (klassik) maktabi asoschisi Anri Fayolning ta'kidlashicha mustaqil sohalarga bo'lingan beshta boshqaruv funktsiyasi mavjud.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Mavzuga oid iqtisodchi olimlarning fikrlarini muhokama qilsak, biznes-jarayoni juda ko'p va turli hil, ayni paytda juda o'xshash ta'riflarga ega.

Masalan, A.V.SHeerning ta'kidlashicha biznes-jarayonini “Oldindan belgilangan qoidalarga muvofiq dastlabki hom-ashyo, material yoki ma'lumotni yakuniy mahsulotga (xizmatga) aylantiruvchi takrorlanadigan harakatlarning va funktsiyalarning bog'langan to'plamidir”<sup>1</sup>.

ISO 9000 xalqaro standartiga ko'ra jarayoni “kirishni chiqishga aylantiruvchi o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir qiluvchi operatsiyalar (faoliyatlar to'plami)” sifatida ta'riflanadi.

V.Repin, V.Eliferovlarning ta'kidlashicha “Biznes jarayonlari shunday tuzilganki, har bir jarayon manfaatdor tomonlar uchun xizmat qilishi kerak. Biznes jarayonini aniqlashda keraksiz harakatlar chiqarib tashlanadi”<sup>2</sup>.

Bizningcha, biznes-jarayoni, shuningdek, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xodimlarning eng minimal sonini o'z ichiga olishi kerak. Sababi bu tartib mahsulot yoki xizmat tannarxini (biznes jarayonining natijasida) kamaytirish uchun zarurdir.

Biznes jarayonlari va jarayon yondashuvini rivojlanishi sifat menejmenti tizimlariga qo'yiladigan talablarni tavsiflovchi bir qator ISO 9000 standartlarini ishlab chiqdi. Jarayondsh yondashuvi sifat menejmentining sakkizta asosiy tamoyillaridan biridir. Jarayonli yondashuvning mohiyati jarayonlarni aniqlash va korxonadagi jarayonlar tizimini va bunday jarayonlarning o'zaro ta'sirini boshqarishdir. Jarayonlar tarmog'ini va ularning o'zaro ta'sirini yaratish orqali jarayonlar yagona tizim sifatida boshqarilishi kerak<sup>3</sup>.

Bizning fikrimizcha, agar korxonalar jarayonli yondashuvdan foydalansa, demak u faoliyat va resurslarni jarayon sifatida boshqaradi.

Jarayonli yondashuvi manfaatdor tomonlar uchun qiymat yaratish maqsadida biznesni tashkil etish va boshqarishning samarali usuli hisoblanadi.

Agar funktsional yondashuvda boshqaruv tashkiliy birliklarning funktsiyalaridan o'tsa, jarayonli yondashuvda boshqaruv ob'ektlari jarayonlar hisoblanadi, natijada jarayon bir nechta bo'limlarga ta'sir qiladi va shu orqali boshqariladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot jarayonida obektivlik tamoyili kuzatish, statistik ma'lumotlar bilan ishlash, qiyosiy tahlil va buxgalteriya hisobi usullaridan keng foydalanilgan. Tadqiqot ishini bajarishda metodologik bazasi bo'lib ma'lumotlarni to'plash, kuzatish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish asosida tadqiqotning iqtisodiy munosabatlarni va ularning rivojlanishidagi hodisalarni hamda o'zaro bog'liqliklarni o'rganishga nisbatan yalpi va tizimli yondashuvlarni nazarda tutuvchi umumiy ilmiy printsiplari xizmat qildi.

### **Tahlil va natijalar**

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida biz suvta'minoti korxonasiga mos holda biznes-jarayonlarini tabaqalashtirishni amalga oshirdik va bu tavsiflar oldingi paragraflarda atroflicha yoritib berildi.

Shunga muvofiq, jarayonlar bo'yicha tannarxni hisoblash uchun korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobining mavjud axborot sig'imiga muvofiq biznes-jarayonlar nuqtai nazaridan hisobvaraqlarlar tizimini shakllantirish zarur.

<sup>1</sup> Шеер, А.В. Бизнес-процессы. Основные понятия. Теория. Методы / А.В.Шеер. – М.: Весть-Метатехнология, 2008. – 182 с.

<sup>2</sup> Репин В., Елиферов В. Процессный подход к управлению. Моделирование бизнес-процессов. Манн, Иванов и Фербер, 2013.

<sup>3</sup> Международный стандарт iso 9000 системы менеджмента качества основные положения и словарь. Перевод В.А. Качалова от 09.09.2016 (взамен редакции от 22.02.2016). ИСО 9000:2015(Е).

Boshqaruv hisobi maqsadlarida biznes-jarayonlari uchun biz buxgalteriya hisobi sub’ektining muayyan biznes-jarayonining amalga oshirilishidan erishgan moliyaviy natijasini aks ettirish uchun boshqaruv hisobi hisobvaraqlarini, shuningdek, hisobvaraqlar ushbu tizimining tahliliy imkoniyatlarini kengaytiruvchi birinchi va ikkinchi tartib subhisobvaraqlarni taklif etamiz (1-jadval).

**1-jadval**

**Boshqaruv hisobida biznes-jarayonga yo’naltirilgan boshqaruvni qo’llash sharoitida hisob yuritish funktsiyalarini kengayishi**

**(1-variant)**

<b>Hisobvaraqlarning nomi</b>	<b>I tartib subhisobvaraqlari</b>	<b>II tartib subhisobvaraqlari</b>
Asosiy biznes-jarayonlari	1- «Xaridlar»; 2- «Ichimlik suvini ishlab chiqarish»; 3- «Sotuvlar»; 4- «Gradinya va nasoslarga texnik xizmat ko’rsatish va ularni ta’irlash»; 5- Utilizatsiya	Subjarayonlar turlari bo’yicha
Boshqaruv jarayonlari	1- «Moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarish»; 2- «Axborot resurslarini boshqarish»; 3- «Inson resurslarini boshqarish»; 4- «Atrof-muhit bilan ishlash dasturini boshqarish»; 5- «Tashqi aloqalarni boshqarish»	Subjarayonlar turlari bo’yicha
YOrdamchi biznes-jarayonlari	1 - «Nasoslarni ta’irlash»; 2 - «Transport xizmati ko’rsatish»; 3 - «Texnik nazorat»; 4 - «Nasoslarni montaj/demontaj qilish»; 5 - «Jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish»; 6 - «YOrdamchi moslanmalar ishlab chiqarish»; 7 - «Asosiy vositalarga texnik (kafolatli) xizmat ko’rsatish va ularni ta’irlash»; 8 - «Kapital qurilish»	Subjarayonlar turlari bo’yicha
Rivojlantiruvchi biznes-jarayonlari	1 - «ITTKI»	Subjarayonlar turlari bo’yicha
Realizatsiya qilish	1 - «Tushum»; 2 - «Tannarx»; 3 - «Soliq»; 4 - «Saldo»	2.1 - «Asosiy biznes-jarayonlarining tannarxi»; 2.2 - «Boshqaruv jarayonlarining tannarxi»; 2.3 - «YOrdamchi biznes-jarayonlarining tannarxi»; 2.4 - «Rivojlantiruvchi

		biznes-jarayonlarining tannarxi»
Moliyaviy natijalar	1- «Foyda»; 2- «Zarar»	

*Manba: muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan.*

Taklif etilayotgan tartib boshqaruv hisobi uchun qaror qabul qilishda hisob tizimida bo'sh turgan hisobvaraqlardan foydalanish zarurati korxonaning boshqaruv tizimida bir nechta boshqaruv texnologiyalarini (masalan, jarayonga yo'naltirilgan boshqaruv va hayotiy tsikl bosqichlari bo'yicha boshqarish) parallel ravishda qo'llash mumkinligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, tabaqalashtirilgan biznes-jarayonlarining soni ancha ko'p bo'lishi mumkin, har bir biznes-jarayoni uchun esa alohida hisobvaraqlarning alohida erkin shifri zarur.

Biznes-jarayonlarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning alohida sintetik hisobvaraqlarda to'planishi axborot oqimlarini moliyaviy va boshqaruv hisobi o'rtasida chegaralash hisobidan butun boshqaruv tizimining tahliliy funktsiyalarini kuchaytiradi.

«Asosiy biznes-jarayonlari», «Boshqaruv jarayonlari», «YOrdamchi biznes-jarayonlari», «Rivojlantiruvchi biznes-jarayonlari» hisobvaraqlari faol hisoblanadi, hisobvaraqlarning debeti bo'yicha biznes-jarayonlarini amalga oshirish xarajatlari yig'iladi, hisobvaraqlarning krediti bo'yicha esa jarayonlar va subjarayonlar tannarxining hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi.

«Biznes-jarayonlari va mahsulot hayotiy tsiklining bosqichlari bo'yicha amalga oshirish» hisobvarag'i faol-passiv bo'lib, hisobvaraqlarning krediti bo'yicha tushum hisoblanadi, hisobvaraqlarning debetiga subhisobvaraqlar kesimida amalga oshirilgan biznes-jarayonlarining tannarxi o'tkaziladi.


1-rasmda boshqaruv hisobida biznes-jarayonlarining hisob kuzatuv tizimi keltirilgan bo'lib, u alohida biznes-jarayonini amalga oshirishning moliyaviy natijasini aniqlash, shuningdek xarajatlarni hisobini aniqroq yuritish uchun axborot oqimlarini chegaralash imkonini beradi.

Bevosita hisobvaraqlar tizimidan tashqari biznes-jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisobga olishga doir yozuvlarni yuritish uchun biz tatqiqot ishida biznes-jarayonining amalga oshirilishidan qo'lga kiritiladigan yakuniy moliyaviy natijani shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarning butun tartibini qamrab oluvchi namunaviy buxgalteriya yozuvlari taklif etdik (2-jadval).

Taklifimizga ko'ra, suvta'minoti sanoatining biznes-jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob kuzatuvining ikkinchi varianti boshqaruv hisobining subhisobvaraqlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Taklif etilayotgan hisob tizimidagi barcha jarayonlar mustaqil hisoblash ob'ektlari hisoblanadi. Qo'shilgan qiymatni shakllantiruvchi quyidagi biznes-jarayonlari quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

- «Ichimlik suvini ishlab chiqarish»;
- «Texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash»;
- «Nasoslarni demontaj va utilizatsiya qilish».

Analitik hisob asosiy biznes-jarayonlari bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulot, bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlar turlari kesimida yuritiladi.



**1-rasm. Suv ta’minoti korxonalarida biznes-jarayonlari uchun boshqaruv hisobi tizimida hisobni tashkil etish modeli**

Manba: Muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan

**Biznes-jarayonlari bo‘yicha boshqaruv hisobi tizimida namunaviy buxgalteriya yozuvlar albomi  
(1-variant)**

<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Debet</b>		<b>Kredit</b>
	<b>Asosiy hisobvaraq</b>	<b>Subhisobvaraq</b>	
<b>Moddiy xarajatlar aks ettirilgan</b>	«Asosiy biznes-jarayonlari»	1 - «Xaridlar»	«Materiallar»; «Tovarlar»; «Tayyor mahsulot» va b.
		2 - «Ichimlik suvini ishlab chiqarish»	
		3 - «Sotuvlar»	
		4 - «Texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta‘mirlash»	
		5 - «Nasoslarni demontaj va utilizatsiya qilish»	
	«Boshqaruv jarayonlari»	1 - «Moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarish»	
		2 - «Axborot resurslarini boshqarish»	
		3 - «Inson resurslarini boshqarish»	
		4 - «Atrof-muhit bilan ishlash dasturini boshqarish»	
		5 - «Tashqi aloqalarni boshqarish»	
	«YOrdamchi biznes-jarayonlari»	1 - «Nasos stendli gorelkalarni ta‘mirlash»	
		2 - «Transport xizmati ko‘rsatish»	
		3 - «Texnik nazorat»	
		4 - «Nasos qismlarni montaj/demontaj qilish»	
		5 - «Jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish»	
		6 - «YOrdamchi moslanmalar ishlab chiqarish»	
		7 - «Asosiy vositalarga texnik (kafolatli) xizmat ko‘rsatish va ularni ta‘mirlash»	
	«Rivojlantiruvchi biznes-jarayonlari»	1 -«ITTKI»	

Manba: Muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan

**Biznes-jarayonni tashkil etishda hisobvaraqlarda hisob yuritish funksiyalarini kengaytirish (2-variant),**

<i>Hisobvaraqlarning nomi</i>	<i>I tartib subhisobvaraqlari</i>	<i>II tartib subhisobvaraqlari</i>
«Asosiy biznes-jarayonlari»	1 – «Ichimlik suvini ishlab chiqarish»; 2 – «Nasoslarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash»; 3 – «Nasoslarni demontaj va utilizatsiya qilish»	Subjarayonlar turlari bo'yicha
Rivojlantiruvchi biznes-jarayonlari	1 – ITTKI	Subjarayonlar turlari bo'yicha
Yordamchi biznes-jarayonlari	1 – «Nasos stendli agregatlarni ta'mirlash»; 2 – «Transport xizmati ko'rsatish»; 3 – «Texnik nazorat»; 4 – «Nasos qismlarni montaj/demontaj qilish»; 5 – «Jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish»; 6 – «Yordamchi moslanmalar ishlab chiqarish»; 7 – «Asosiy vositalarga texnik (kafolatli) xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash»; 8 – «Kapital qurilish»	Subjarayonlar turlari bo'yicha

Manba: Muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan

«Yordamchi biznes-jarayonlari» hisobvarag'ida buxgalteriya hisobi sub'ektida ajratilgan barcha yordamchi jarayonlarni hisobga olish taklif etiladi, ularning har biri uchun alohida subhisobvarag'i ochiladi. Rivojlantiruvchi biznes-jarayonlari va boshqaruv jarayonlarini aks ettirish uchun «Rivojlantiruvchi biznes-jarayonlari» hisobvarag'iga (umuman buxgalteriya hisobi sub'ektini va uning alohida tuzilmalarini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan xarajatlar aks ettiriladi, suv ta'minoti korxonalarida ushbu xarajatlarga birinchi navbatda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar kiradi) va «Boshqaruvchi biznes-jarayonlari» hisobvarag'iga (har bir boshqaruvchi biznes-jarayoni uchun subhisobvaraqlar ochiladi) boshqaruv hisobi subhisobvaraqlaridan foydalanish taklif etiladi. Ushbu hisobvaraqlar ham kalkulyatsion hisobvaraqlar hisoblanadi. Debet bo'yicha tegishli biznes-jarayonlarining amalga oshirilishi bilan bog'liq xarajatlar, kredit bo'yicha esa ularni moliyaviy natijalar hisobvarag'iga hisobdan chiqarish aks ettiriladi, bu asosiy, yordamchi, rivojlantiruvchi biznes-jarayonlari va boshqaruv jarayonlarining tannarxini aniqlash imkonini beradi.

Taklif etilayotgan hisob tizimi ushbu hisobvaraqlarga yuklamani, shuningdek, hisoblash ob'ektlari (mahsulot, ishlar, xizmatlar)ga taqsimlash xarajatlari ko'rsatadigan mahsulot tannarxini shakllantirishga salbiy ta'sirni sezilarli darajada kamaytiradi.

Taklif etilgan hisob tizimida “Sotuvlar” hisobvarag'i va “Foyda va zararlar” hisobvarag'ining tahliliy xususiyatlari kengaytirilgan, bu nafaqat tannarxni, balki moliyaviy natijani hamda jarayonlar har bir guruhi: asosiy, yordamchi, rivojlantiruvchi va boshqaruv jarayonlarini amalga oshirish samaradorligini ham aniqlash imkonini beradi.

Ushbu bosqichda o‘tkazilgan tadqiqot ilmiy yangilikning quyidagi qoidalarini ifodalash va quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Buxgalteriya moliyaviy va boshqaruv hisobida bir xil hisobvaraqlardan foydalanish nooqilona bo‘lib, ularni kodlash va korrespondentsiyalovchi yozuvlarni shakllantirishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. SHu munosabat bilan jarayonga yo‘naltirilgan boshqaruvning hisobga olish funktsiyalarini rivojlantirish uchun boshqaruv hisobi doirasida alohida hisob tizimini ishlab chiqish zarur.

2. Suv ta‘minoti korxonalarida biznes-jarayonlari bo‘yicha boshqaruv hisobini rivojlantirish uchun quyidagi talablarga javob beradigan hisob tizimini ishlab chiqish zarur:

- har bir biznes-jarayoni kesimida xarajatlar to‘g‘risidagi axborotni shakllantirish mumkinligi;

- barcha jarayonlar (asosiy, yordamchi, rivojlantiruvchi va boshqaruv jarayonlari)ni amalga oshirish samaradorligini baholash uchun moliyaviy hisobdan mustaqil bo‘lgan moliyaviy natijani shakllantirish mumkinligi;

- hisob tizimining o‘zgaruvchanligi, boshqaruv hisobini yuritishning alohida (1-variant, unda hisobvaraqa oid yozuvlar bo‘sh turgan hisobvaraqlarda yuritiladi) va integratsiyalashgan variantlari (2-variant, unda bo‘sh turgan hisobvaraqlardan foydalanilmaydi) uchun.

#### **Xulosa va takliflar.**

1. Suv ta‘minoti korxonalarida biznes-jarayonlari bo‘yicha boshqaruv hisobini rivojlantirish doirasida faoliyat jarayonlari bo‘yicha tannarx va moliyaviy natijalarni aniqlashning ikkita variantini nazarda tutuvchi hisob kuzatuvining standartlashtirilgan tizimi ishlab chiqildi: 1) alohida tizim – amalga oshirilayotgan biznes-jarayonlarining xarajatlari faqat bo‘sh turgan hisobvaraqlarda to‘planadi, moliyaviy natija esa «Biznes-jarayonlari va mahsulot hayotiy tsiklining bosqichlari bo‘yicha amalga oshirish» hisobvarag‘ida va «Biznes-jarayonlari va mahsulot hayotiy tsiklining bosqichlari bo‘yicha moliyaviy natijalar» hisobvarag‘ida shakllanadi;

2) integratsiyalashgan tizim – Hisobvaraqlar rejasi «Ishlab chiqarish xarajatlari» bo‘limi amaldagi sintetik hisobvaraqlarining analitik imkoniyatlarini, shuningdek, yakuniy moliyaviy natijani aniqlash uchun «Sotuvlar» va «Foyda va zararlar» hisobvaraqlarining taklif etilgan tahliliy tuzilmasini rivojlantirishni nazarda tutadi.

2. Hisob yuritish algoritmi va biznes-jarayonlarini amalga oshirish xarajatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tabaqalashtirilgan tarzda aks ettirish imkoniyatini ta‘minlovchi korrespondentsiyalovchi yozuvlar albomlarini o‘z ichiga oluvchi buxgalteriya hisobi sub‘ekti faoliyatining jarayonlari bo‘yicha xarajatlar boshqaruv hisobi metodikasi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu «Umumiy xo‘jalik xarajatlari» hisobvarag‘iga yuklamani sezilarli darajada kamaytiradi hamda har bir jarayonning tannarxini va uning amalga oshirilishidan erishilgan yakuniy moliyaviy natijani hisoblash imkonini beradi. Hisob tizimiga taklif etilayotgan o‘zgaruvchan modeli (integratsiyalashgan va alohida) universal xususiyatga ega bo‘lib, ishlab chiqarish sanoatining har qanday korxonalarini faoliyatida qo‘llanilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Файоль А. Общее и промышленное управление пер. Б. В. Бабина-Кореня с предисл. А. К. Гастева. М.: Центральный институт труда, 1923. С.

2. ГОСТ Р ИСО 9001-2015 Системы менеджмента качества. Требования.
3. Becker J., Kugeler M., Rosemann M. Process management: a guide for the design of business processes. Berlin: Springer Science & Business Media, 2013. P. 337.
4. Badreddine A., Romdhane T.B., Amor N.B. A New Process-Based Approach for Implementing an Integrated Management System: Quality, Security, Environment // Proceedings of the International Multi Conference of Engineers and Computer Scientists, IMECS, Hong Kong, 2009. P. 202-211.
5. Холод Л. Л., Хрусталева Е. Ю. Методы и инструментарий реализации процессного подхода // Знание. Понимание. Умение. - 2007. - №4.-С. 127.
6. Пахомова Б.Ю. Управление качеством методической работы в образовательном учреждении. / Метод. пособие.-Архангельск: Изд-во АО ИППК РО, 2011.-С.126.
7. Осипова О.П. Повышение квалификации с использованием дистанционных образовательных технологий. // «Справочник руководителя образовательного учреждения», 2012, №12.-С40-42
8. Панфилова О. С. Алгоритмы мониторинга системы качества организации / О. С. Панфилова, Ю. В. Сажин // Вести. Самар. гос. экон. ун- та. - 2010. - № 3(65). - С. 79-84. (0,47 п. л., в том числе автора 0,23 п. л.).
9. Пакет программ для информационной поддержки бизнес-процессов организации / С. А. Панфилов // Ползун, вести. [Барнаул]. - 2011. - № 3/1. - С. 218 – 220 (0,25 п. д., в том числе автора 0,12 п. л.)
10. Пакет программ для информационной поддержки бизнес-процессов организации / С. А. Панфилов // Ползун, вести. [Барнаул]. - 2011. - № 3/1. - С. 218 – 220.
11. Пакет программ для информационной поддержки бизнес-процессов организации / Ю. А. Фомин // Ползун, вести. [Барнаул]. - 2011. - № 3/1. - С. 218 – 220.

Репин В.В. Бизнес- процессы. Моделирование, управление, управление/В.В.Репин. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2013.-511 с.;